



IQTISODIYOT RIVOJLANISHI JARAYONIDA BANK-MOLIYA XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISH VA ULARNING AVZALLIKLARI HAMDA HAVFSIZLIK JARAYONI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7854368>

**Matchanov Toxirjon Matchanovich
Allamuratov Timur Komekbaevich**

O'zbekiston Respublikasi Bank-Moliya Akademiyasi Iqtisodiyotni Monetar Tartibga Solish Yo'Nalishi Magistratura Bosqichi Tinglovchisi, Toshkent Shahridagi Inha Universiteti Monitoring Va Ijro Nazorati Bo'Lim Boshlig'i Va Toshkent Shahridagi Inha Universiteti Ilmiy-Tadqiqotlarni Rivojlantirish Bo'Lim Boshlig'i

Annotatsiya. Mazkur maqolada dunyoda va mamlakatimizda bank-moliya xizmatlarini raqamlashtirish, iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida mamlakatimiz bank-moliya tizimi, shu jumladan, bank-moliya xizmatlari doirasida ularni rivojlantirish va havfsizlik bilan bog'liq bir qator muammolar shu bilan birga ushbu muammolarga yechim sifatida takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar. Raqamli iqtisodiyot, bank tizimi, raqamli banking, internet-banking, SMS-banking, pul, bank xizmatlari, moliyaviy xizmatlar, masofaviy xizmat, raqamlashtirish.

KIRISH.

Dunyo bo'ylab har kuni ko'plab axborotlar aylanadi. Buning sababi internet va mobil telefonlarni doimiy ravishda o'sib borayotgan texnik imkoniyatlari, insonlarning ijtimoiy tarmoqlarga jalb qilinishi va internet tezligining yildan-yilga o'sishi katta yordam beradi.

Bugungi kunda raqamlashtirish sohasi sezilarli darajada o'zgarishi natijasida iqtisodiyot, moliya va bank sohasidagi o'zgarishlarni ham kuzatishimiz mumkin.

Shu bilan bir qatorda, mamlakatimiz aholisi raqamli banklarining mobil ilova dasturlari orqali haqiqiy vaqt rejimida xohlagan kartadan kartaga pul o'tkazish (P2P) operatsiyalarini, byudjet, soliq, communal va boshqa to'lovlarni amalga oshirish, kreditlarni so'ndirish, mikroqarz olish va onlayn omonatlarni rasmiylashtirish, depozit hamda ssuda hisobvaraqlarini masofadan ochish, onlayn valyuta konversiya operatsiyalarini amalga oshirish, xalqaro bank karta hisobvarag'idan to'lovlarni amalga oshirish va boshqa masofaviy bank xizmatlaridan keng foydalanmoqda.

Buning uchun mijoz bank binosiga kelib o'tirmasdan, birgina bank ilovasi orqali onlayn masofadan turib, bank xizmatlaridan foydalanish imkoni mavjud.

Mazkur maqola orqali raqamli bank (banking) o'zi nima, tijorat banklari bilan yangi tashkil etilgan raqamli banklar o'rtasida qanday afzalliklar mavjudligi, ularni insoniyat uchun qulayliklari, O'zbekistonda birinchi raqamli banklar, dunyoda va



mamlakatimizda bank-moliya jarayonlarini takomillashtirilgan tizimi qanday yo'lga qo'yilganligi, shuningdek ularning havfsizligi haqida ma'lumot berib o'tiladi.

Shu bilan birga, mamlakatimizda bank-moliya tizimini barqarorligi yo'lida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarga to'xtalib o'tamiz.

"Biz bank-moliya sohasida islohotlarni yanada chuqurlashtirish niyatidamiz. Gap mazkur sohada sog'lom raqobat muhitini yaratish, xorijiy banklarni O'zbekistonga faol jalg etish, samarali fond bozorini shakllantirish haqida bormoqda. Bu zalda bank sohasiga investitsiya kiritgan xorijiy hamkorlarimizni ko'rish bizga katta mammuniyat bag'ishlaydi. Biz xorijiy sarmoyadorlarning bank-moliya sohasini yanada takomillashtirishga qaratilgan taklif va tashabbuslari uchun ochiqmiz" (Shavkat Mirziyoyev 2022-yil) [1].

TAHLIL VA NATIJALAR.

Raqamli bank - tushunchasi, bu bank mijozlari uchun bir tizimdan foydalangan holda foydalaniladigan, mamlakat bo'ylab boshqa tarmoqlari mavjud bo'lмаган, mijoz uchun bank hizmatlari va mahsulotlarini onlayn rejimida foydalaniladigan bank. Raqamli banklar asosi bo'lib, mobil ilova va call-markazlar tashkil etadi. Raqamli bank tushunchasi va ishga tushish ish jarayoni XX asrning oktabridan boshlangan. XX asrda ish boshlagan "First Direct" banki (Buyuk Britaniya) filialsiz bank yaratgan birinchi bank bo'ldi. Ya'ni shu davrda birinchi mijozlarga xizmat ko'rsatish telefon orqali bank tomonidan amalga oshirilgan edi. Bank birinchi ish kuni davomida o'z mijozlaridan 1000 ga yaqin qo'ng'iroqlarni qabul qildi. Oradan 6 yil o'tib "First Direct" banki ro'yxatida 500 000 dan ortiq mijozga hizmat ko'rsatishni boshlagan. Amerika Qo'shma Shtatida 2014-yilda Kris Skinnerning nashr etilgan "Digital bank" kitobida birinchi marta raqamli bank iborasi batafsil tavsif berildi [2]. Hozirgi XXI asrga kelib Raqamli bank tushunchasi Yevropa davlatlarida 2015-2020 yillar davomida jadallik bilan rivojlangan [3].

Raqamli banklar o'z mijozlariga yanada qulaylik va foydali bo'lgan xizmatlarni taqdim etish maqsadida zamonaviy raqamli innovatsiyalardan keng foydalanib kelmoqdalar.

Bugungi kunda mamlakatimizda yangi tashkil etilgan raqamli banklarning tijorat banklaridan asosiy afzalliliklari [4]

- raqamli banklarning mamlakatimiz bo'ylab bank filiallari kengaymasligi;
- raqamli banklar ortiqcha bino-inshoot va boshqa resurslarni talab qilmasligi;
- raqamli banklar mijoz va bank o'rtaida doimiy ravishda onlayn aloqa tizimining o'rnatilganligi;
- raqamlashtirilgan banklarning mijoz uchun sifatli va qulay bo'lgan mobil ilovasi;
- raqamli banklarda mijozlar talabidan kelib chiquvchi, shuningdek bozor talablariga javob bera oladigan kreditlar va omonatlar uchun eng qulay sharoitlari;
- raqamli banklar mijozlar uchun sifatli, tezkor, qulay, havfsiz va kechayu kunduz ish rejimida javob beruvchi aloqa markazlarining mavjudligi;
- raqamli banklarda byurokratik to'siqlarni mavjud emasligi;



- raqamli bank ilovalarining mijozlar uchun xizmat ko'rsatish sohalarini arzonligi jihatidan farqlari mavjud.

Yuqorida sanab o'tilgan qulayliklar faqatgina bank mijozlari foydasi uchun xizmat ko'rsatadi.

Raqamli banklar insoniyat uchun masofadan xizmat ko'rsatish, bank va mijoz o'rtasidagi jarayonni raqamlashtirishga mo'ljallangan bo'lib, mijozlarning omonat hisobini, plastik kartalarga ochilgan hisobini, masofadan boshqarish imkoniyatini beradi. Masofadan xizmat ko'rsatish tizimlari bank xizmatlari uchun ketadigan vaqtini tejaydi va inson resurslaridan foydalanishni kamaytiradi.

Raqamlashtirish tili bilan aytganda mobil-banking, internet-banking yoki SMS-banking xizmatlari yordamida mijozlarga xizmat ko'rsatadi.

Raqamli banklarda internet-banking o'zi nima va bu xizmati orqali mijoz qanday asosiy xizmatlardan foydalana oladi ? [5].

Raqamli banklarda internet-banking o'zi nima ?

Raqamli banklarda Internet-banking - bu mijozlarning internet orqali omonat hisobini, banklariga ochilgan hisobvaraqlarini, boshqarish imkonini beruvchi tizimdir. Bu xizmat mijoz va o'rtasida masofadan onlayn bank bilan bog'langan holda haqiqiy vaqt davomida to'lovlarni zish uchun mo'ljallangan tizimdir. Mijoz tizimga veb-brauzer orqali kira oladi. Mijoz bankning saytida barcha o'z ma'lumotlarini jumladan, to'lov hujjalari va hisobvaraqlardan ko'chirmalarni o'chiqish imkoniyatiga ega bo'ladi. Internet-banking tizimi bankning veb-serverida shtiriladi.

Nº	Raqamli banklarda <u>internet-banking</u> xizmat orqali mijoz qanday asosiy atlardan foydalana oladi ?
1	internet-banking xizmati orqali to'lovlarni kerakli hisobga o'tkazish;
2	mijoz to'lov o'tishi bosqichlarini kuzatib borish;
3	mijoz hisobidagi mablag'i, qoldiqlari va aylanmalari to'g'risida ma'lumot olish;
4	mijoz asosiy hisobvaraq bo'yicha qarzdorliklar to'g'risida ma'lumot olish;
5	mijoz kredit mablag'lari va unga hisoblangan foizlar to'g'risida ma'lumot olish;
6	mijoz valyuta kurslari to'g'risida ma'lumot olish kabi barcha asosiy jarayonlardan jan vaqtda mijozlar uchun foydalish imkoniyatini yaratish;
7	mijoz bank tomonidan yuborilgan xabarnomalarni ko'rish.

Raqamli banklarda SMS-banking o'zi nima va bu xizmat orqali mijoz qanday asosiy xizmatlardan foydalana oladi ? [6].


Raqamli banklarda SMS-banking o'zi nima ?

Raqamli banklarda SMS-banking - bu bank mijozlarga ularning omonat hisobidagi hamda bank ariga ochilgan hisobvaraqlaridagi jarayonlar haqida SMS tarzida mijoz ma'lumotlarini olish dir. Mijoz hisobvarag'idan o'z ma'lumotlarini olish uchun mijoz bankning maxsus telefoniga belgilangan SMS-so'rovni jo'natishi lozim.

Nº	Raqamli banklarda <u>SMS-banking</u> xizmati orqali mijoz qanday asosiy xizmatlardan lana oladi ?
1	mijoz hisobvarag'iga kelib tushgan mablag'larni ko'rish;
2	mijoz hisobvaraq balansi to'g'risidagi ma'lumotlar;
3	mijoz hisobvarag'idan barcha xarajatlar to'g'risidagi ma'lumotlar;



4 mijozning kun davomida o'tkazilgan bank operatsiyalari to'g'risida kunlik va operativ mot olish.



Shuni aytishimiz joizki, mustaqillik yillariga nisbatan qisqa davrda jahoning eng ilg'or andozalariga mos keladigan, har qanday tashqi va ichki ta'sirlarga bardosh bera oladigan, mamlakatimizni rivojlangan davlatlar qatoriga kirishi uchun metindek asos vazifasini o'taydigan zamонавиy bank va moliya tizimi yaratildi [9].

Davlatimiz rahbari tomonidan 2018-yil O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank tizimiga chakana bank xizmatlariga ixtisoslashgan raqamlashtirilgan banklar va bank bo'linmalarini tashkil, etish shuningdek innovatsion bank texnologiyalaridan foydalangan holda bank mijozlariga xizmat ko'rsatish sifatini oldingidan kengaytirish vazifasi qo'yilgan.



Shu sababli, mazkur vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida mamlakatimizda 2020-yilda sentyabr oyida "Anorbank" va keyinchalik "TBC bank" raqamlashtirilgan banklar sifatida mijozlarga onlayn xizmatlarni ko'rsatishni boshlashgan.

Hozirgi kunda raqamli banklar safiga kiritilgan "Anorbank" va "TBC bank"lar o'z mijozlariga statsionar kompyuterlar yoki mobil ilovalar orqali to'liq raqamli xizmatlarni ko'rsatib kelmoqdalar. Bundan shuni anglashimiz kerakki, raqamli bank tizimida mijozga bank mobil dasturi, mobil dasturiga asosan esa yuqori texnologiyaga ega axborot texnologiya infratuzilma bilan ta'minlangan sifatli bank operatsiyalari taqdim etiladi. Bu esa raqamli bank mijoji bank xizmatlaridan kechayu-kunduz ish rejimida to'liq foydalanish imkonini beradi.

Dunyoda va mamlakatimizda bank-moliya jarayonlari takomillashtirilgan tizimi qanday yo'lga qo'yilganligi shuningdek ularning havfsizligi [10]

Dunyoda raqamli xizmatlar kundan-kunga inson hayotining deyarli barcha sohalarida rivojlanib, o'sib kelmoqda. Bunday sohalarga misol qilib, bank-moliya sohasini aytsak bo'ladi, mazkur sohaning raqamli xizmatlariga mobil ilovalar, mobil qurilmalarni, ijtimoiy saytlarni, elektron to'lovlarni va pul o'tkazmalarini, masofaviy pul omonatlarini va boshqalarni kiritishimiz mumkin. Hozirgi davrga kelib, bank va mijoz o'rtasidagi jarayon butkul yangi - raqamlashtirish tili bilan aytganda "interaktiv" tusga kirib, insonlarda raqamli fikr lash tushunchasi ya'ni mazkur soha bo'yicha yildan-yilga ularning savodxonligi oshib bormoqda.

Dunyoning yetakchi manbalari o'tkazgan tahlil natijalari ham bu holatni tasdiqlaydi. O'tkazilgan so'rovlar natijasiga ko'ra:

besh yildan keyin 68% odamlar pullar bilan ishlash butunlay boshqacha bo'lishiga ishonadilar;

besh yildan keyin 33% odamlar mijozlar deyarli bankka borish kerak bo'lamaydi ya'ni raqamli banklar barcha mamlakatlarda rivojlanadi deb hisoblaydilar;

besh yildan so'ng 70% odamlar mahsulot va hizmatlarga bo'lgan to'lov usuli to'liq o'zgaradi deb ishonadilar;

besh yildan so'ng salkam 50% odamlar, banklarning ishlash printsipi tubdan o'zgaradi deb hisoblaydilar.

Raqamli banklar mijoz va bank o'rtasidagi muloqotning yangi rivojlanish bosqichi bo'lib, u moliyaviy hizmatlar sektoridagi innovatsiyalarni hamda bu sohadagi raqamli, IT strategiyalarni o'z ichiga qamrab oladi. Dastlab bu haqda birinchi marotaba "Microsoft Money" internet banking deb nomlangan texnologiyasi yaratilgan vaqtarda aytib o'tilgan edi. "Digital Bank Report" manbasida o'tkazilgan ilmiy izlanishlar doirasida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, dunyo darajasidagi 70% moliyaviy muassasalar raqamli bankingni o'zlarining strategik mavqelaridan biri deb hisoblaganlar. Shuni aytib o'tishimiz joizki, raqamli banklar bo'yicha zamонави ishlanmalarni tahlil qilgan holda bu sohadagi eng asosiy va muhim bo'lgan yo'nalishlarni ko'rsatib o'tishimiz lozim:



- Bank mijozning ishonchliligi reytingini avtomatik ravishda aniqlash texnologiyasini amaliyatga tadbiq etish;
- Banklarda virtual xodimlar tomonidan olib boriladigan amallarning havfsizlik qoidalariga rioya qilinishini nazoratga olish;
- Banklarda pul mablag'larini noqonuniy tarzda o'zlashtirib olinishini oldini olishga qaratilgan jarayonlarni avtomatlashtirish;
- Bank bankomatlarga o'rnatilgan ko'rish tizimlaridan doimiy foydalanib borish.

Dunyo tajribasidan ma'lumki, iqtisodiyotni rivojlantirish doimo yangi IT-texnologiyalari asosida amalga oshadi. Shu sababli ham zamonaviy ilmiy-texnik inqilob sharoitlarida bank sohasi bu borada yetakchilardan biri sanaladi. Shu sababli ham bu yo'nalishdagi katta moliyaviy yo'qotishlarning oldini olish maqsadida raqamli bank sohasida kredit tashkilotlarining samarali va sifatli havfsizlik tizimini yaratish talab etiladi.

Masalaning boshqa tarafiga nazar solsak, mamlakatimizda bank sohasini raqamlashtirish uchun mazkur sohani rivojlantira oladigan, raqamli texnologiyalarni qo'llay oladigan professional va malakali kadrlar va yangi lavozimlar yaratish talab etiladi. Masalan, bu lavozimlar qatoriga raqamli texnologiyalarni rivojlantirish bo'yicha direktor va innovatsion rivojlanish bo'yicha direktor lavozimlarini kiritish mumkin.

Xozirda raqamli modernizatsiya dunyo iqtisodiyotining muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Jahon iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi sharoitida alohida davlatlar iqtisodiyotining integratsiyasi va to'lov tizimlarining rivojlanishi, xususan, naqdsiz to'lov shakllari, banklarning raqamli xizmatlari turlarini rivojlantirish yo'nalishi kuzatilmoqda. Bank-moliya tizimiga elektron ITning kirib kelishi, mazkur yo'nalishdagi ortiqcha katta mablag'lar talab etadigan ishlarni yangicha tashkil etish va mukammallashtirishga zamin yaratdi. Bank-moliya yo'nalishida ro'y berayotgan har-xil muammolar va ular keltirib chiqaradigan salbiy oqibatlarini yengib o'tish uchun milliy iqtisodiyotda raqamli iqtisodiyotni keng ko'lamda qo'llashga erishish asosiy masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Raqamli banklar uchun raqamli bankingni qo'llash, iqtisodiy havfsizlikni ta'minlash va mobil tizimlar rivojlanishiga alohida ahamiyat qaratish moliyaviy bozorlar va banklar rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada asosiy muhim masalalar iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayonida kredit tashkilotining havfsizligini ta'minlash hamda raqamli banklarning rivojlanish muammolari hisoblanadi. Shu bilan birga, kredit tashkilotining iqtisodiy xavfsizligi bankning ichki va tashqi salbiy havflaridan bartaraf qilish uchun qo'llaniladigan huquqiy, tashkiliy, dasturiy-texnik vositalar va usullar yig'indisi hisoblanadi. Biroq zamonaviy kredit tashkilotining iqtisodiy havfsizligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan asosiy faktorlar majmuiga axborot texnologiyalari infratuzilmasining himoyasini ta'minlash, ma'lumotlarning to'liqligi va firibgarliklarga qarshi kurashishni kiritishimiz mumkin.



Umumiy bank sektoridagi bunday yangiliklar kredit tashkilotlarining faoliyatida, banklarning iqtisodiy havfsizligini ta'minlashda bir nechta katta o'zgarishlarga sabab bo'lishi mumkin. Iqtisodiy havfsizlikni raqamli banking sharoitlarida ta'minlash uchun, quyidagi fikrlarni amalga oshirish talab etiladi:

Doimiy ravishda dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqarish va ularni yangilab borish talab etiladi;

Barcha sohaga tegishli bo'lgan ma'lumotlar bazasini markazlashtirish;

Mazkur sohaning iqtisodiy havfsizligini ta'minlash uchun qonuniy asoslarni mukammallashtirishni tashkil etadi.

Mamlakatimizda bank-moliya tizimi barqarorligi yo'lida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjat sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son Farmoniga to'xtaladigan bo'lsak, mazkur Farmonning 1-ilovasida 2020 - 2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasining III bob 3.3-bandiga asosan Zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish asnosida quyidagi ishlar belgilab berilgan:

masofaviy bank xizmatlari, shu jumladan kontaktsiz to'lovlar soni va qamrovini kengaytirish;

avtomatlashtirilgan skoring tizimi, raqamli identifikatsiyalash va kredit konveyeridan keng foydalanish;

bank ma'lumotlari va tizimlarining axborot xavfsizligini kuchaytirish;

bank sohasidagi yangi konsepsiya va texnologiyalarini joriy qilish (fintex, marketpleys, raqamli bank) [11].

Shuningdek mamlakatimiz iqtisodiyoti globallashuv sharoitida bank-moliya tizimini isloh qilish va barqarorligini oshirish, bank tizimiga mamlakatimiz insonlarini va xorijlik hamkorlarimizni ishonchini yanada oshirish, bank mijozlariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng qo'llagan holda, banklar tomonidan taklif etilayotgan bank xizmatlarining turini kengaytirish bugungi kunning eng muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimiz Prezidentining 2018-yil 23-martda qabul qilingan "Bank xizmatlari ommabopligrini oshirish bo'yicha qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi PQ-3620-son qaroriga asosan "Bank xizmatlari ommabopligrining oshirilishini va bank xizmatlari iste'molchilari huquqlarining himoya qilinishini ta'minlash O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining muhim va asosiy vazifalaridan biri ekanligi belgilab qo'yildi [12].

XULOSA VA TAKLIFLAR.

O'zingizga ma'lumki dunyoning ba'zi rivojlangan banklari o'z mijozlariga to'xtovsiz xizmat ko'rsatishga harakat qiladilar, bunday xizmat ko'rsatishni Germaniyaning "Doyche bank", Gollandiyaning "ABN AMRO Bank", Fransiyaning "Sosete Jeneral", Amerika Qo'shma Shtatlarining "Sitibank" banklarida ko'rishimiz mumkin. Yuqorida banklarda bank xizmatlari strategiyasi asosan past tariflarda yangi mijozlar, korrespondent-banklarni o'ziga jalb etish, zamonaviy to'lov tizimlaridan foydalana olish imkoniyatlariga asoslanadi va mijozlarga xizmat



ko'rsatish kechayu-kunduz ya'ni kuniga 24 soat davomida haftasiga 7 kun olib boriladi. Xizmatlar mijozlarning ko'proq o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish tamoyiliga asoslanadi, xizmatlarning doimiy ravishda mobilligini ta'minlaydi va mijozlarni jalg etish usuli hisoblanadi. Hozirgi kunda moliyaviy masalalar bo'yicha ko'pgina texnologiyalar naqd pul olish bankomatlari dasturidan ancha murakkabdir, shu sababli banklar oddiy interfeyslarni va tushunarli ko'rsatmalarni yaratish haqida o'ylashlari lozim va bank mijozlarining yangi raqamli bank xizmatlariga ko'nikma hosil qilishlari uchun har xildagi qo'llanmalarni ishlab chiqish bank uchun maqsadga muvofiq bo'ladi. Mazkur tadqiqot natijasida tijorat banklarining xizmat bozori va banklar tomonidan ko'rsatilayotgan xizmat turlari, samaradorligi va sifatini chuqur tahlil qilgan, shuningdek rivojlanayotgan raqamli iqtisodiyot sharoitida bank havfsiz va to'xtovsiz ishlashini ta'minlash bo'yicha quyidagi ilmiy xulosalar shakllantirildi va takliflar ishlab chiqildi:

1. Raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoitlarida kredit tashkilotlarining iqtisodiy havfsizlik darajasini oshirish eng birinchi navbatdagi ishlardan biridir;
2. Mamlakatimiz banklararo bozori bank kapitali, bank depoziti va kreditlar bo'yicha bozor konsentratsiyasi koeffitsientining haqiqatdagi darajasidan yuqori ekanligi, sog'lom banklararo raqobatning to'liq shakllanmaganligidan dalolat beradi;
3. Mamlakatimizda banklararo raqobatni shakllantirish, yirik banklarning moliya bozoridagi monopol mavqeiga barham berish imkonini beradigan alohida qonunning mavjud emasligi, sog'lom raqobat muhitni shakllantirishga to'sqinlik qilmoqda;
4. Raqamli banking bank iqtisodiy havfsizligi tizimida zaruriy elementlardan biri bo'lib qoladi;
5. Mamlakatimizning ba'zi yirik tijorat banklarida kreditlarning aktivlar hajmidagi salmog'ining beqaror bo'lganligi, ba'zi davriy oraliqlarda pasayish sur'atiga ega bo'lganligi, bank aktivlari va kreditlarining daromadlilik darajasiga nisbatan salbiy ta'sirni yuzaga keltirdi;
6. Moliyaviy sektorning rivojlanishi nuqtai-nazaridan raqamli transformatsiya yangi raqamlashtirilgan ish muhitini yaratish natijasida moliyaviy faoliyat yuritishni mukammallashtirishdir.

Mazkur maqolamdagagi so'zimning oxirida shuni xulosa sifatida aytishim lozimki, har qanday raqamlashtirish jarayoni olib borilayotgan sohada rivojlantirish masalalari xavfsizlik masalasi bilan birga olib borilishi kerak deb o'layman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA HAVOLALAR RO'YXATI:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xorijiy investorlar kengashining birinchi yalpi majlisidagi nutqi (16.11.2022 yil) <https://president.uz/uz/lists/view/5702>.[1]
2. Крис Скиннер Digital Bank. - Манн, Иванов и Фербер, 2015.[2]
3. „USA digital banks“. topmobilebanks.com (дата обращения: 13.04.2021).[3]



4. Maqola muallifi tomonidan ishlab chiqilgan.[4]

5. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki "Masofadan xizmat ko'rsatish tizimlari" (07.03.2022yil)[https://cbu.uz/uz/payment-systems/remote-banking-services/.\[5/6/7/8\]](https://cbu.uz/uz/payment-systems/remote-banking-services/.[5/6/7/8])

6. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi "O'zbekiston moliya va bank tizimi tarixining bizga ma'lum va noma'lum bo'lgan jihatlari haqida" (15.06.2016 yil) [https://mineconomy.uz/uz/node/1233.\[9\]](https://mineconomy.uz/uz/node/1233.[9])

7.

[https://academicsresearch.ru/index.php/ispcttosp/article/download/767/1354.\[10\]](https://academicsresearch.ru/index.php/ispcttosp/article/download/767/1354.[10])

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yildagi 12-maydagi "2020 - 2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-sun Farmoni (13.05.2020 dan kuchga kirgan) [https://lex.uz/docs/4811025.\[11\]](https://lex.uz/docs/4811025.[11])

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 24-martdag'i "Bank xizmatlari ommabopligrini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3620-sun qarori (24.03.2018 dan kuchga kirgan) [https://lex.uz/docs/-3593541.\[12\]](https://lex.uz/docs/-3593541.[12])